

Jinoyat tarkibi elementi sifatida obyektining jinoyat huquqiy ahamiyati hamda uning predmetdan farqli jihatlari

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalari
oliy maktabi tinglovchisi
Pirmatov Komil Karimboyevich**

Anotatsiya:

Mazkur maqolada jinoyat huquqi doirasida jinoyat tarkibining asosiy elementi hisoblangan jinoyat objekti tushunchasi tahlil qilinadi, jinoyat objekti sifatida ijtimoiy munosabatlarni asosiy belgi sifatida ko‘rsatib, ularning jinoyat predmeti va jabrlanuvchi bilan bo‘lgan farqli jihatlari chuqur yoritadi. Ishda jinoyat objekti va predmeti o‘rtasidagi konseptual farqlar, ularning huquqiy tabiatdagi o‘rni, jinoyat tarkibini kvalifikatsiya qilishdagi roli, hamda amaliyotda yuzaga keladigan tafvutlar asosli misollar bilan ko‘rsatib berilgan.

Jinoyat predmeti — obyektiv olamga oid moddiy narsalar sifatida tavsiflanadi va jinoyatning bevosita ta’sir doirasiga tushadigan obyektlar sifatida qaraladi. O‘z navbatida, jabrlanuvchi — jinoyat oqibatida zarar ko‘rgan shaxs sifatida ko‘riladi, shuningdek jinoyatlarning obyektiv tomoniga oid belgilar (harakat, oqibat, sababiy bog‘lanish)ni ham alohida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jinoyat objekti, ijtimoiy munosabatlar, jinoyatning obyektiv tomoni, harakat, oqibat, sababiy bog‘lanish, jinoyat predmeti, jabrlanuvchi, jinoyat tarkibini kvalifikatsiya qilish.

Jinoyat objekti – jinoiy tajovuz qaratilgan va shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar insonlar o‘rtasida ularning hayotiy faoliyati jarayonida vujudga keladigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning mavjudligi jarayonida shakllanib boradi. Ular qonun tufayli, jumladan, jinoyat qonuni tufayli yuzaga kelmaydi, ammo qonun ularning rivojlanishi, shakllanishi va shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari bilan mosligini mustahkamlashga sabab bo‘lishi kabi holatlar mavjud.

Shuningdek, jinoyat obyektini - bu muayyan qadriyatlar, masalan, hayot - bu huquq emas, balki jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan qadriyat degan tushuncha mavjud. Biroq, amaliy nuqtayi nazardan, jinoyat obyektini jinoyat tarkibining tarkibiy elementi bo‘lib, u manfaat, qadriyat, manfaat yoki ijtimoiy munosabatlarni, predmet belgilarini va jabrlanuvchining belgilarini o‘z ichiga oladi. Jinoyat obyektining mazmuniga qarab, jinoyatning aniq tarkibi obyektiv tomoniga kvalifikatsiya belgisi sifatida ijtimoiy xavfli oqibat kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida subyektning umumiy belgisi belgilangan, biroq jinoyat qonuni subyektning uning ijtimoiy maqomiga taalluqli bo‘lgan maxsus belgilarini talab qiladi. Masalan, ayrim moddalarda zarar mansabdor shaxs maqomiga ega bo‘lgan tor doiradagi subyektlar tomonidan yetkazilishi mumkin.

Jinoyat tarkibining asosiy elementi sifatida jinoyat obyektini uni boshqa yondosh elementlar va tushunchalardan ajratib turadigan bir qator belgilarga ega. Jinoyat obyektining belgilari quyidagilardan iborat: jinoyatning asosiy obyektini sifatida ijtimoiy munosabatlar, jinoyat predmeti va jinoyat qurboni bo‘lgan shaxs, ya‘ni jabrlanuvchi.

1. Ijtimoiy munosabatlar.

Ijtimoiy munosabatlar odamlar o‘rtasida ularning hayot faoliyati davomida yuzaga keladigan munosabatlardir. Bir qator olimlarning fikricha, jinoyat sodir etilganda ijtimoiy munosabatlar o‘z-o‘zidan barham topmaydi, normal faoliyat ko‘rsatish sharti yo‘qoladi¹. Shunday qilib, L.I. Spiridonovning fikricha, jinoyat munosabatlarning o‘zini yo‘q qilmaydi. Jinoyat qonunchiligi faqat empirik asoslarni himoya qiladi².

Bizning fikrimizcha, jinoyat obyektini sifatidagi ijtimoiy munosabatlar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlardan jinoyat obyektini deb tan olingan ijtimoiy munosabatlarni farqlash, ularning mohiyatini ochib berish, boshqa jinoyat-huquqiy toifalar bilan aloqasini o‘rnatish va nihoyat, jinoyat obyektiga yetkazilgan zararining xususiyatini aniqlash uchun foydalanish mumkin:

1) jinoyat obyektini deb tan olingan ijtimoiy munosabatlar jamiyatda shakllangan qadriyatlar mezonini va asoslarini o‘z ichiga oladi. Jinoyat qonunida

¹ Никифоров Б.С. Избранное / Составитель канд. юрид. наук А.А. Гравина — М: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации, 2010.— 224 с.

² Спиридонов Л.И. Социология уголовного права. – М., 2016. – С. 47.



koʻzda tutilgan obyektlarni himoya qilish kuchi qanchalik kuchli boʻlsa, jamiyat uchun eng muhim boʻlgan birinchi darajali ijtimoiy munosabatlarni shunchalik aniq aniqlash mumkin. Bu koʻp jihatdan ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi normalarning ketma-ketligi bilan bogʻliq. Xususan, qonunchilik ushbu ketma-ketlikni Jinoyat kodeksining 2-moddasida koʻrsatilgan tizimga muvofiq amalga oshiradi;

2) faqat eng muhim, qimmatli va davlat muhofazasiga muhtoj boʻlgan ijtimoiy munosabatlarga jinoyat obyekti deb eʼtirof etiladi. Jinoyat obyekti deb eʼtirof etiladigan ijtimoiy munosabatlarning aksariyati umuminsoniy qadriyatlar, masalan, shaxsning jismoniy va maʼnaviy daxlsizligiga oid munosabatlar va boshqalar;

3) jinoyat obyekti - bu hech qanday moddiy ahamiyatga ega boʻlmagan ijtimoiy kategoriya, yaʼni jinoyat obyektini jinoyat predmetidan farqlash imkonini beruvchi mezon;

4) jinoyat obyekti mexanizmining taʼsiri ijtimoiy munosabatlarning yoʻqolishi yoki yoʻqolishida emas, balki buzilishida ifodalanadi. Masalan, odam oʻldirish natijasida, hatto affekt holatida ham halok boʻlishi mumkin, ammo jinoyat obyekti sifatida (inson hayotini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlar) oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi³. Binobarin, jinoyat obyekti doirasidagi ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi jamiyatning har bir aʼzosi hisoblanadi.

2. Jinoyat predmeti.

Jinoyat obyektining mohiyati toʻgʻrisidagi masalaning munozaraliligi jinoyat tajovuz predmeti haqida turli fikrlarning ilgari surilishiga sabab boʻldi. M.X.Rustambayevning taʼkidlashicha, “jinoyat predmeti - bu obyektiv olamning jonli yoki jonsiz moddiy buyumlari boʻlib, ularga aybdor shaxs bevosita taʼsir koʻrsatadi yoki ular bilan bogʻliq holda yoki ular uchun jinoyat sodir etiladi.”⁴

Jinoyat predmeti va obyekti oʻrtasidagi farq shundan iboratki, jinoyat predmeti har doim obyektiv olamning moddiy ashyosi, masalan, transport vositalari, hujjatlar, hayvonlar, oʻsimliklar, jinoyat obyekti esa ijtimoiy kategoriyadir. Agar jinoyat sodir etilishi natijasida jinoyat obyektiga zarar yetkazilsa yoki zarar

³ Ҳақимов К.Б. Аффект ҳолатида содир этиладиган жиноятларнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019. – 49 б.

⁴ Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. Т. 1. Умумий қисм. Жиноят тўғрисида таълимот: Дарслик. – Тошкент: ИLM ZIYO, 2010. – Б. 144.

yetkazilishi xavfi paydo bo'lsa, jinoyat natijasida jinoyat predmeti umuman yo'q qilinishi (masalan, JK 173-moddasiga muvofiq odam o'ldirish, uy-joyga o't qo'yish) yoki o'zgarishsiz qolishi (masalan, avtomobilni o'g'irlash yoki ashyoni o'g'irlash) yoki hatto o'z sifatlarini yaxshilashi mumkin.

M.I.Fedorov jinoyat predmetini jinoiy taqiqlangan qilmishning bevosita ta'siriga uchraydigan muayyan ijtimoiy munosabatlarning tashuvchilari bo'lgan muayyan narsalar yoki ularning majmui, boshqa moddiy obyektlar, shuningdek inson sifatida tavsiflaydi⁵. Shu bilan birga, uning so'zlariga ko'ra, jinoyat obyektidan farqli o'laroq, jinoyat predmeti har doim ham mavjud emas. M.I.Fedorovning nazariy talqinida ijtimoiy munosabatlarning tashuvchisi bo'lgan shaxslardan tashqari, bunday tashuvchilar sifatida narsalar (predmetlar) tan olinishi mumkinligiga e'tibor qaratadi.

M.A.Gelfer jinoyat predmeti deganda, jinoyatchi bevosita ta'sir ko'rsatadigan tashqi olam predmetlarini tushunadi. Uning fikricha, jinoyatchi mazkur predmet bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilsa, ularga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Gelfer M. obyektini jinoyat predmetidan ajratadigan olimlarning qarashlarini tanqid qiladi. “Jinoyat predmeti jinoyat obyektini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi, lekin ular bilan birlashmaydi.”⁶

Ye.A. Frolovning ta'kidlashicha, qilmish muayyan moddiy obyekt bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilgandagina tajovuzkorlikda jinoyat predmeti mavjud bo'ladi⁷. Jinoyat predmeti deganda, o'z shaklini olib qo'yish, yo'q qilish, yaratish yoki o'zgartirish yo'li bilan jinoyat obyektiga zarar yetkazadigan, moddiy (ashyoviy) dalil yoki muayyan ijtimoiy munosabatlarning mavjud bo'lish sharti bo'lib xizmat qiladigan ashyolar yoki predmetlar tushunilishi lozim.

Jinoyat obyektini ijtimoiy munosabat sifatida jinoyat predmetini nazarda tutadi. Jinoyat-huquqiy muhofaza obyektiga qaratilgan tajovuz bevosita jinoyat predmetiga ko'chadi.

⁵ Федоров М.И. Понятие объекта преступления. – М., 2019. – С. 193.

⁶ Гельфер М.А. Объект преступления // Записки ВЮЗИ. Вып. 5. – М., 2010. – С. 16.

⁷ Фролов Е.А. Спорные вопросы общего учения об объекте преступления: Сб. учен. тр. – Вып. 10. – Свердловск, 2019. – С. 221.



Jinoyat predmeti – jinoyat obyektiga nisbatan tajovuz qilishda aybdor shaxs to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etadigan, u tufayli yoki uning uchun jinoyat sodir qilingan obyektiv olamdagi jonli yoki jonsiz moddiy narsalar.

Har qanday jinoyat tarkibining zaruriy elementi bo‘lgan jinoyat obyektidan farqli ravishda jinoyat predmeti fakultativ belgi hisoblanadi. Masalan, tuhmat (Jinoyat Kodeksi 139-moddasi), haqorat qilish (Jinoyat Kodeksi 140-moddasi), dezertirlik (Jinoyat Kodeksi 288-moddasi) kabi jinoyatlarda jinoyat predmeti mavjud emas. Agar jinoyat predmeti jinoyat kodeksi maxsus qismi tegishli moddalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa jinoyat tarkibining zaruriy elementi vazifasini bajaradi va kvalifikatsiyaga ta‘sir ko‘rsatadi.

Masalan, kontrabanda (Jinoyat Kodeksi 246-moddasi), transport vositasini olib qochish (Jinoyat Kodeksi 267-moddasi) kabi jinoyat tarkiblarida jinoyat predmeti jinoiy javobgarlikka tortish bilan bevosita bog‘liq.

Bunday holatlarda jinoyat tarkibining zaruriy elementi sifatida jinoyat predmeti ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatli rol o‘ynaydi.

Jinoyat predmeti va jinoyat obyektiga o‘rtasidagi farq shundaki, jinoyat predmeti har doim obyektiv olamdagi moddiy narsadir, masalan, transport vositasi, hujjatlar, hayvonlar, o‘simliklar, jinoyat obyektiga esa ijtimoiy kategoriya hisoblanadi. Agar jinoyat sodir etilishi natijasida jinoyat obyektiga zarar yetkazilsa yoki zarar yetkazish xavfi tug‘ilsa, jinoyat predmeti esa jinoyat oqibatida butunlay yo‘q qilib yuborilishi (masalan, odam o‘ldirish, jinoyat kodeksi 173-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda o‘t qo‘yish) yoki o‘zgarishsiz qolishi (masalan, transport vositasini olib qochish yoki ashyoni o‘g‘irlash) va hatto o‘zining sifatini yaxshilashi mumkin.

Jinoyat predmetini jinoyat obyektiv tomonining belgilari bo‘lmish jinoyat sodir etish quroli va vositalaridan farqlash lozim. Jinoyat predmeti jinoyat obyektiga tajovuz qilishda aybdor to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadigan narsadir. Masalan, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (Jinoyat Kodeksi 247-moddasi) jinoyatida qurollar jinoyat predmeti hisoblanadi, uyushgan qurolli guruh tuzish (Jinoyat Kodeksi 242-moddasi 2-qismi) jinoyatida esa jinoyat sodir etish quroli hisoblanadi. Yoki masalan, transport vositasini olib qochish (Jinoyat Kodeksi 267-moddasi) jinoyatida avtomobil predmet bo‘lib hisoblanadi, o‘g‘irlangan ashyoni tashishda esa jinoyat sodir etish vositasi hisoblanadi. Jinoyat predmetining ahamiyati katta. Bundan

tashqari, jinoyat predmeti kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin, u yaqin bo'lgan jinoyat tarkiblarini (masalan, kontrabanda va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) bir-biridan ajratish asosi sifatida xizmat qiladi va jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini aniqlashga yordam beradi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismi ayrim moddalarida jismoniy shaxs sifatida inson jinoyat predmeti sifatida nazarda tutiladi. Bunday hollarda jinoyatning jabrlanuvchisi haqida so'z yuritish mumkin. Bunda subyekt tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabatga aylanadi.

Jabrlanuvchi – jinoyat bevosita qaratilgan, jinoyat natijasida zarar yetgan va zarar (jismoniy, mulkiy, ma'naviy) yetkazilish xavfi ostida qolgan shaxs.

Jabrlanuvchi ko'p hollarda shaxsga qarshi jinoyatlarda namoyon bo'ladi (odam o'ldirishda, tan jarohati yetkazishda, nomusga tegishda va boshqalarda). Jonsiz predmetlar singari jabrlanuvchi, aniqrog'i uning shaxsiy xususiyatlari, xulqi zaruriy va og'irlashtiruvchi belgi rolini bajargan holda qilmishni kvalifikatsiya qilishga, shuningdek, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holat sifatida jazo miqdorini belgilashga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi jinoyatida jabrlanuvchi faqatgina yangi tug'ilgan chaqaloq bo'lishi mumkin. Shuningdek, ojiz ahvoldagi shaxsni o'ldirishda jabrlanuvchi faqatgina jinoyatchiga qarshilik ko'rsata olmaydigan yoki unga nisbatan sodir qilinayotgan qilmishning xususiyatini tushunishga layoqatsiz bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin. Yoki masalan, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish jinoyatida o'lim jabrlanuvchining g'ayriqonuniy zo'rliigi yoki og'ir haqorati, shuningdek, boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuz bergan bo'lishi lozim.

Jinoyat predmeti - moddiy dunyo ne'mati bo'lib, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektning ijtimoiy xavfli harakat to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan elementidir. Agar shaxs jinoyat predmeti sifatida qaraladigan bo'lsa, jinoiy-huquqiy ma'noda u jabrlanuvchi deyiladi. Jabrlanuvchi inson sifatida jinoyat predmetidan farqlanadi, buning sababi u jinoyat obyekt bo'lishi uchun uning faoliyati sabab bo'lgan bo'lishi mumkin, misol qilib aytsak, xokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish (Jinoyat kodeksi 219-m.).

Jinoyat obyekt va predmeti aynan bir xil tushunchalar emas. Biroq jinoyat predmeti sodir etilgan jinoyatning belgisi hisoblanadi. Jinoyat kodeksida shunday jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik ko'zda tutilganki, ularning predmetini ko'rsatish



qiyin, chunki predmet deyilganda moddiy (ko‘z bilan ko‘riladigan, o‘lchovi, sifati va o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan) narsa tushuniladi⁸

Umuman olganda, jinoyatning predmetini to‘g‘ri aniqlash jinoyatni tasniflashda uning boshqa oraliq tarkiblaridan ajratish, og‘irlashturuvchi hollarda sodir etilgan harakatlarni tasnif etish kabilarda muhim ahamiyatga ega. Jinoyat kodeksi 14-moddasining sharhida, har qanday jinoyat - shaxs hulqining ayrim ko‘rinishi, ya‘ni shaxsning ongi va irodasi nazorati ostidagi harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan qilmish sifatida izohlangan. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi norma va shartlari o‘rganilganda jinoyat tarkibi belgisiga xos tomonlarni ko‘rish mumkin:

birinchidan, obyektiv tomon – sodir etilgan jinoyatning tashqi tomonini ifodalovchi element bo‘lib, jinoyatni qanday sodir etilishini ko‘rsatadi;

ikkinchidan, obyektiv tomonni ifodalaydigan belgilar u yoki bu jinoyatning ijtimoiy xavfliligini va uning darajasini bildirib turadi;

uchinchidan, bu belgilar umumiy ifodaga ega, ya‘ni real voqelikda sodir qilinadigan jinoyatlardan kelib chiqadi;

to‘rtinchidan, jinoyat tarkibining obyektiv tomoni yuridik ahamiyatga ega, chunki u Jinoyat qonunida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda blanket dispozitsiya sifatida nazarda tutiladi. Ta‘kidlash joizki, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi dispozitsiyalarida jinoyat tarkibi boshqa elementlariga nisbatan obyektiv tomonining belgilari ko‘proq ifodalangan bo‘ladi. Bu belgilar jinoyatlarni bir-biridan farqlash, buning natijasi sifatida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish mezoni hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi har bir dispozitsiyasi obyektiv tomonini tashkil etuvchi belgilar yig‘indisidir. SHunday qilib, jinoyat tarkibining obyektiv tomoni - ijtimoiy xavflilik va uning darajasini ifodalovchi tashqi, obyektiv, ijtimoiy va yuridik ahamiyatli belgilari majmuidir.

Tuzilishi jihatidan obyektiv tomonning zaruriy va fakultativ belgilari mavjud. Har qanday jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi - harakat yoki harakatsizlikda ifodalanuvchi qilmishdir. Obyektiv tomonning boshqa belgilari fakultativ belgilardir. Ammo ularni ham o‘rganish muhim. Birinchi guruhga,

⁸ Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. /M. Usmonaliyev, -T., “Yangi asr avlodi” 2017 B.63 Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta‘limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. B.116-120.

shuningdek barcha moddiy tarkibli jinoyatlar uchun xos belgilarga ijtimoiy xavfli qilmishdan tashqari, ijtimoiy xavfli oqibat hamda ijtimoiy xavfli qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish kiradi. Ikkinchi guruhga esa jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun zarur belgilar, ya'ni jinoyat sodir qilish vaqti, joyi, holati, usuli, quroli, vositasi kabilar kiradi.

Harakat - hulqning ayrim ko'rinishlaridan biri bo'lib, ma'lum motivlardan kelib chiqadi va muayyan maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Jinoiy harakatni o'rganish uchun uning tashqi faollik shakli va ko'rinishlariga e'tibor qaratish lozim. Har qanday harakat - harakatlanish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ammo, ayrim tana harakatlari tasvirlanganda, jinoiy harakat ular bilan solishtirilmaydi. Ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb topish uchun uni sodir etish bir yoki bir necha harakatlardan iborat bo'lganligining ahamiyati yo'q. Ko'p holda jinoiy harakat muskul kuchlari ta'siri bilan pichoq urish, sovuq qurol ishlatish va boshqa yo'llar bilan sodir etiladi. Biroq, jinoiy harakat so'z bilan, imo-ishoralar orqali (bezorilik, haqorat, o'ldirish bilan qo'rqitish va boshqalar) sodir etilishi mumkin. Jinoiy harakat - harakatlari birligini o'z ichiga oladi, shu bilan birga ahamiyatiga ko'ra, bir xil harakat har xil harakatlanishlar sodir qilishi mumkin. Masalan, hujjatlarni qalbakilashtirish uchun aybdor uni to'g'irlashi, boshqa matn yozishi yoki boshqa usullarda sodir qilinishi mumkin, bunda jinoyat sodir qilish aybdorning individual imkoniyatlari, ishlatilishi mumkin bo'lgan vosita va usullar va sh.k. larga bog'liq.

Jinoiy harakat tashqi jihatdan imo-ishora shaklida (masalan, haqorat qilishda), biron so'z aytish orqali (masalan, qo'rqitish) yoki ko'p hollarda boshqa shaxs yoki atrofdagi turli predmetlarga jismoniy ta'sir qilishda (masalan, davlat mulkini o'zlashtirish yoki odam o'ldirishda miltiq tepkisini bosish) ifodalanadi.

Imo-ishora va so'z shaklidagi harakat - jabrlanuvchi ongiga ta'sir qilsa, tashqi muhit predmetlariga ta'sir qilish shaklidagi harakat ularning sifat va xususiyatlariga, ularning joylashuviga hamda boshqa predmet va tashqi borliq bilan o'zaro aloqasiga ta'sir qiladi va shunday yo'sinda boshqa odamlarga ham va ularning hulqiga ta'sir qiladi. (Ijtimoiy belgilari Jinoyat kodeksi 14-moddasiga berilgan sharhda ko'rib chiqilgan.)

3. Jinoyatdan jabrlanuvchi.

A. Demidov insonni mustaqil himoya qilinishi kerak bo'lgan obyekt sifatida tavsiflab o'tadi. Shuningdek, ushbu muallif insonni ijtimoiy munosabatlarning



tarkibiy qismi sifatida hamda unga nisbatan tajovuz amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rib chiqishni alohida ajratib ko‘rsatadi.⁹

Umuman olganda, jinoyatdan jabrlanuvchining muammolari tarmoqlararo darajada uzoq vaqt davomida yetarlicha samarali o‘rganib kelinmoqda. Kriminologiyaning mustaqil kichik bo‘limi - jinoyat jabrlanuvchisi haqidagi ta‘limot (viktimologiya) ning mavjudligi jabrlanuvchining shaxsini o‘rganishda ma‘lum darajada mustaqillikni nazarda tutsa-da, P.G.Pogrebnyak, bizning fikrimizcha, jinoyat jabrlanuvchisini ko‘p intizomiy o‘rganish zarurligi haqida gapirganida mutlaqo haq. Shuning uchun ham jinoyat-huquqiy fan, ham protsessual va amaliy fanlar (kriminalistika, sud ekspertizasi) bo‘yicha bilimlar zarur. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu fikr jinoyat obyekti haqidagi ta‘limotda jinoyat jabrlanuvchisining shaxsi haqidagi masalalarga ham taalluqlidir.¹⁰

Garchi jabrlanuvchi jinoyat qonunining moddalarida tez-tez tilga olinsa-da, jabrlanuvchi doktrinasi jinoyat huquqida uzoq tarixga ega emas. Jinoyat qonunida jinoyat jabrlanuvchisining shaxsiga ta‘rif berilmagan bo‘lsa, JPK 54-moddasining birinchi qismida jabrlanuvchiga ta‘rif berilgan.

Jabrlanuvchi ham jinoyat obyekti bilan chambarchas bog‘liq. Qotillikni Prezident hayotiga tajovuz qilishdan farqlash bunga yaqqol misoldir. X.M.Abzalova har ikkala moddada (O‘zbekiston Respublikasi JKning 97 va 158-moddalarida) insonni g‘ayriqonuniy ravishda hayotdan mahrum qilish amalga oshirilishini ko‘rsatgan (JKning 158-moddasida - Prezident)¹¹. Biroq, JK 158-moddasida jabrlanuvchining maqomi jinoyatning boshqa obyekti - O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari va xavfsizligi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar mavjudligidan dalolat beradi, chunki Prezidentga inson sifatida emas, balki davlat organi sifatida qaraladi.

Jinoyat huquqida jinoyat qurboni bo‘lgan shaxs “jinoyatdan jabr ko‘rgan barcha shaxslarni o‘z ichiga olgan jamoaviy tushuncha,”¹² umumlashgan ijtimoiy qiyofadir. Binobarin, jinoyat huquqida barcha jabrlanuvchilarga xos bo‘lgan belgilarni ajratib bo‘lmaydi.

⁹ Демидов Ю.А. Социальная ценность и оценка в уголовном праве. – М., 1995. – С. 51–62.

¹⁰ Погребняк П.Г. Рецензия на кн. “Потерпевший от преступления”. – Владивосток, 2014. – С. 150.

¹¹ Абзалова Х.М. Уголовно-правовые и криминологические аспекты борьбы с убийствами. Автореферат диссертации доктора юридических наук (DSc). Ташкент, 2020. – с. 42

¹² Дагель П.С. Потерпевший в уголовном праве // Потерпевший от преступления: Сборник статей / Под ред. Дагеля П.С. – Владивосток, 2014. – С. 21.

Bu yerda gap “maxsus jabrlanuvchi” haqida bormoqda. Shu bilan birga, shuni nazarda tutish lozimki, bunda JK 5-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi buzilmaydi. P.S.Dagel jabrlanuvchining shaxs belgilarini ikki kichik guruhga ajratadi:

- 1) jismoniy belgilar;
- 2) ijtimoiy belgilar.

Yuzning jismoniy belgilari yosh va gender xususiyatlarini o‘z ichiga oladi: ayol, erkak, chaqaloq, voyaga yetmagan va boshqalar. Ijtimoiy belgilar xizmat yoki lavozim tavsifini o‘z ichiga olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

- 1.1. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // www.uza.uz
- 1.2. Shavkat Mirziyoev Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2019 yil 8 dekabrda 254-soni
- 1.3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (2023 yil) // www.lex.uz
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2024 yil 10 maygacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan. [lex.uz](http://www.lex.uz)) // www.lex.uz
- 2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son // <https://lex.uz/docs/5841063>
- 2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/3735818>. 2018 yil 14 may., PQ-3723-son.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami: 1991-2006. N.Z.Toshmatovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B. 236.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida"gi qarori

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida"gi 2017-yil 11-oktyabrdagi 35-sonli qarori

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida" 2000-yil 28-apreldagi 8-son qarori

III. Ilmiy adabiyotlar

3.1. Jinoyat huquqi. Maxsus qism: Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri / Sh.T. Ikramov, R.Kabulov, A.Otajonov va boshq; Mas’ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 1098 b.

3.2. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik (To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri) / R. Kabulov, A. A. Otajonov va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 482 b.

3.3. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 441 b.

3.4. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism / M.Rustambayev. – Tashkent: Adolat nashriyoti, 2021. – 608 b.

3.5. Андреева Л.И. Квалификация убийств, совершенных при отягчающих обстоятельствах. — СПб., 1998. — 175 с.

3.6. Блиндер Б.А., Закутский С.Г. Уголовное право Узбекской ССР. Особенная часть. – Т.: «Ўқитувчи», 1985. – 89 с.

3.7. Боровиков В.Б. Уголовное право. Общая и особенная части. Практикум: учеб. пособие. – М.: Юрайт, 2019. – 185 с

3.8. Ветрова Н. И. Уголовное право. Общая часть - М.: 1997. – 145 с.

3.9. Владимиров Л.Е. Учение об уголовных доказательствах. – СПб., Тула, 2010. – С. 180-181.(Режим доступа: <https://www.twirpx.com/file/880292/> от 20 мая 2020 года)

3.10. Гальченко Ф., Матышевский П., Яценко С. Квалификация хулиганства. – М., 2012. – С. 8–9.

3.11. Гаухман Л. Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. - М.: АО«Центр Юри- нфоР», 2014.- 316 с

3.12. Загородников Н.И. Объект преступления: от идеологизации содержания к естественному понятию // проблемы уголовной политики и уголовного права: Межвуз.сб. науч. тр.: - М.: МВШМ МВД РФ, 1994.;

3.13. Галахов А. В. Преступления против правосудия– М.: 2005. – 267 с.

3.14. Гельфер М.А. Научные труды в области немецкого и российского уголовного права: Некоторые вопросы общего учения об объекте преступления в советском уголовном праве // Учен. зап. ВЮЗИ. Вып. 7. – М.: 1959. – 55 с.

3.15. Глистин В.К. Проблема уголовно-правовой охраны общественных отношений (объект и квалификация преступлений). - Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1979. – 85 с.

3.16. Кадыров М.М. Уголовное право Республики Узбекистан. – Ташкент, Адолат, 1997. – С.261.;

3.17. Каиржанов Е. Интересы трудящихся и уголовный закон. – Алма-Ата, 2013. – 180 с.

3.18. Караев Т.Э. Повторность преступлений. – М., 2013.; Красиков Ю.А. Множественность преступлений (понятие, виды, наказуемость). – М., 2018.

3.19. Карпец И.И. Международная преспуность.-М., 2008.-С.104.

3.20. Кириченко В.Ф. Значение ошибки по уголовному праву. – М., 2012. – С. 19–38.

3.21. Клепицкий И.А. Недвижимость как предмет хищения и вымогательства. – М., 2010. – С. 16.

3.22. Ковалев М.И., Козаченко И.Я., Новоселов Г.П. Классификация объектов преступления // Правоведение. – 2017. - №2. – С. 71.

3.23. Кожевников М., Лаговлер Л. Должностные преступления и борьба с ними. –М.: Юрид. лит., 1925. – С. 17.

3.24.Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳ (Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашр. 2016 йил 1 ноябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Умумий қисм / М. Рустамбоев. – Т.: Адолат, 2016 . – 608 б.